

DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLATDA INSON HUQUQLARI MASALALARI

Yuldasheva Husnidaxon

O'zbekiston respublikasi Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada demokratik huquqiy davlatda inson huquqlari masalalari hamda O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va kuchli davlatni shakllantirishi aslida uning fuqarolik jamiyatining ideal modelini real voqelikka aylantirilishi ko'rib chiqilgan va yoritilgan..*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы прав человека в демократическом правовом государстве, а также то, как переход Республики Узбекистан к рыночной экономике и формирование сильного государства фактически превратили его идеальную модель гражданского общества в реальную реальность.*

Annotation: *This article examines the issues of human rights in a democratic state governed by the rule of law, as well as how the transition of the Republic of Uzbekistan to a market economy and the formation of a strong state actually turned its ideal model of civil society into a real reality.*

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va kuchli davlatni shakllantirishi aslida uning fuqarolik jamiyatining ideal modelini real voqelikka aylantirishidir. Demak, kuchli davlatsiz fuqarolik jamiyati ham, demokratik huquqiy davlat ham qurish mumkin emas.

Nima uchun totalitar tuzumning mashaqqatlarini, azoblarini tortgan va endi mustaqillikka yuz tutgan xalqimizga tag'in "kuchli davlat" kerak bo'lib qoldi ekan? Bir mahallar dunyoda eng kuchlilardan biri hisoblangan sho'ro davlatining ayanchli taqdiri, tabiiy qismati saboq bo'lmadimi? Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish nima degani? Kuchli davlatning o'z mavqeidan ixtiyoriy kechishi qanchalik haqiqatga yaqin? Demokratik huquqiy davlatning kuchli davlat ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi? Ular bir-biriga zid ijtimoiy-siyosiy voqeliklar emasmi? Ular o'rtasidagi yaqin-lik, dialektik bog'likdik va kontseptual o'xshashliklar nimalardan iborat? Umuman, kuchli davlatning fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatga aylanishi qanday ro'y beradi?

Ko'rinib turibdiki, bu savollarning barchasiga, to'liq va qoniqarli javob berish qiyin, ammo ularning umumiy kontseptual masalalarini belgilab, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish maqsadiga oid jihatlarini ochib berish bilan cheklanish ham muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Yuqoridagi savollarga javob berishdan oldin biz qanday davlatda yashaganimizni, qisqacha bo'lsa-da, eslab o'tishimiz lozim.

Sho'ro saltanati totalitar boshqaruv, mohiyatan inson, xalqlar, millatlar manfaatlariga zid maqsadlar asosiga qurilgan davlat edi. Totalitar tuzumning, stalinizmning xalqlar boshiga solgan kulfatlari haqida juda ko'p asarlar chop etilgan. Bu davlatning 1930, 1950-

yillardagi terrorini tadqiq etgan AQSH siyosatshunosi professor R.Taker o'zining "Stalin. Hokimiyatga yo'l" asarida, "Iosif Jugashvili o'z xunrezliklari bilan haqiqatan ham Stalin, yahni "temir, toshbag'ir odam" ekanligini isbotlagan", deb aytadi. Zo'ravonlik va hiyla bilan odamlar ongiga singdirilgan kommunistik g'oya esa har qanday milliy demokratik qarashning dushmani edi. Odamlarni bu g'ayriinsoniy, taraqqiyotga g'ov bo'ladigan, millatlarni parokanda etadigan illatlardan xalos qilish oson emas edi, albatta.

"Istiqlool yo'li: muammolar va rejalar" asarida Prezident Islom Karimov mustaqillik yillari tajribasi va milliy demokratik taraqqiyotga to'siq bo'layotgan omillar haqida to'xtalib, bunday degan: "Sho'rolar davri, nakd 74 yil izziz yo'qoldi, deb o'ylaganlar xato qiladi. Bu davrda shakllangan muayyan qadriyatlar bor. Kishilar ongiga ijtimoiy tenglik tushunchasi, yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan mafkura kirib qolgan. Bunday yondashish kishilardagi tashabbusni bo'g'ib qo'ydi. Hamma narsa — davlat mulki, degan aqida odamlarning miyasiga singdirilib, kishi-lar mulkdorlik, egalik tuyg'usidan begona bo'lib qolgan. O'z mulki va moliga ega bo'lmagan odamning ish deb jon kuydirishi juda qiyin. Bunday holat ishchilarning mehnatga intilishiga, shaxsiy rag'batiga, ish natijasi uchun mashuliyatini oshirishga salbiy tahsir etishini hayotimizdagi ko'p misollarda ko'rayapmiz".

Shuning uchun mamlakatimiz rahbari yangi jamiyatning siyosiy tuzumi va davlat tizimini yaratishni boshlab berdi. U O'zbekistonda milliy demokratik taraqqiyotni tahminlash uchun barcha fuqarolarning haq-huquqlarini muhofaza qilish, milliy davlatchilik qurilmasida qonun, ijro va sud hokimiyatlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatib berdi. "Ayni zamonda, — deb davom etadi Islom Karimov, — agar kuchli ijro hokimiyati bo'lmas ekan, eng odil va eng oqil qonunlar va qarorlar ham bajarilmay, shunchaki qog'ozda qolib ketishi mumkin. Bu hol qonunlarni joriy etishga, fuqarolar huquqlarini va erkinliklarini muhofaza qilishga, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga qodir prezidentlik hokimiyatini kuchaytirishni taqozo etadi". Demak, kuchli davlat eng avvalo kuchli ijro hokimiyatidir. Kuchli prezidentlik hokimiyati esa butun ijro hokimiyati to'laqonli va samarali ishlashining asosiy sharti bo'ladi. Bu o'rinda jahondagi prezidentlik institutlarini maxsus tadqiq qilgan M.Mirhamidovning "Prezidentlikning zamonaviy modellari" asaridagi quyidagi xulosani keltirish mumkin: "O'zbek jamiyatining siyosiy-huquqiy anhanalari, uning siyosiy-huquqiy madaniyati va ruhiyati hokimiyat institutlarining o'ziga xosligini aks ettiradi. O'zbek jamiyatiga siyosatni shaxs nomi bilan bog'lash, xalk, yetakchisini tanlash xos. Bu o'zbek xalqining mentaliteti, bozor iqtisodiyotiga o'tishda iqtisodiy, siyosiy vaziyatni barqaror qilishga qodir bo'lgan harakatchan va kuchli hokimiyatning zarurligi bilan bog'likdir. Prezident boshqarayotgan ijro hokimiyati O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonini qo'llab-quvvatlashi bilan kuchlidir. Biroq juda ko'p narsa Prezidentning demokratik qadriyatlarni qo'llab-quvvatlovchi shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining omadi bor, uni boshqarayotgan Prezidentning butun faoliyati demokratik qadriyatlarni joriy etish, bizning jamiyatimiz joni va qoniga ularni singdirishga qaratilgandir".

Bosh qonunimizga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) Fuqarolarning huquq va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) Oliy Majlisga har yili mamlakat ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan mahruzalar takdim etadi;

4) Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini tahminlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi, shu masalalarga doir farmonlarni, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

Senat Raisi, Bosh vazir, Konstitutsiyaviy sud raisi va sudg'yalari, Oliy sud raisi va sudg'yalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudg'yalari, Markaziy bank boshqaruvi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi lavozimlariga nomzodlarni takdim etadi;

5) Viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudg'yalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

6) Viloyat hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

7) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va ehlon qiladi;

8) Mamlakatimizning barcha hududlarida majburiy kuchga ega farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi;

9) Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatini, ular fao-liyatida barqarorlikka tahdid yoki g'ayriqonuniy hollar yuzaga kelganida tarqatib yuborishi mumkin.

Demak, Prezident hukumatning real boshlig'idir. Hukumat ichki tizimini anikdashgacha bo'lgan ichki siyosat sohasidagi jiddiy qarorlar Prezident tomonidan qabul qilinadi va ular uchun faqat Prezident va u boshqarayotgan hukumat javobgardir. Aynan Prezident bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning tashabbuskori bo'lib chiqmoqda va u hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro kelishib, samarali faoliyat ko'rsatishiga katta ehtibor qaratmoqda. Shu bilan birga, M. Mirhamidov yozganidek, nazariy jihatdan bo'lsada, kelgusida Parlament bilan Prezident o'rtasida, xuddi Rossiya, Belarusg',

Ukrainada bo'lganidek, kelishmovchilik paydo bo'lishi mumkin.

Bu o'rinda oxirgi so'zni kim aytadi — Oliy Majlisni tarqatib yuborish huquqiga ega Prezidentmi yoki Prezidentga ishonchsizlik (impichment) masalasini qo'ya olmaydigan Parlamentmi? Bizningcha, Konstitutsiyada belgilab berilgan funktsiyalariga ko'ra hamda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatida oxirgi so'zni Prezident aytadi. Ijro hokimiyatining navbatdagi pog'onasini Vazirlar Mahkamasi tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida uning funktsiyalari belgilab berilgan. Unda Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantirilishi va

tasdiqlanishi qayd etilgan. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi, barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi Qonunga sharhlar / A.H. Saidov va boshq.; Inson huqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, T.: "Vektra-Press", 2009 – 272 b.
2. A. Saidov, T. Ikramov, Yu. Ahmedov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darislik. Toshkent: 2002. – 456 b.
3. A. X. Saidov *Общепизнанные права человека Учебное пособие.* – Moskva, MZ PRESS, 2002. – 267 s.
4. A. X. Saidov, F. X. Bakaeva *Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan i prava cheloveka: ot norm k realizatsii.* – T.: Natsionalnuy tsentr Respubliki Uzbekistan po pra-vam cheloveka, 2010. – 128 s.
5. A. X. Sattorov. O'zbekiston Respublikasi IIV tizimi tergov sohasida inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar. T – 2002. 40 b.
6. Abdunazarova, Dilfuza Tukhtasinovna, Maxfuza Madraximova, and Shuhrat Madrahimov. "SOLVING EQUATIONS IS FOUNDATIONAL FOR MIDDLE AND HIGH SCHOOL MATH." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 3.5 (2021): 7-10.
7. Axmedovna, Madraximova Maxfuza, Turdaliyev Sodiqjon Muminjonovich, and Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich. "CORRELATION COEFFICIENT AS A MATHEMATICAL SOLUTION OF ECONOMIC ISSUES." *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 72-75.
8. Рахматуллаев, М. "Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори СТ Турғунов Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор МР Қодирхонов Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р. Жалалов Т А Ҳ Р И Р Ҳ А Й Ъ А Т И."
9. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. "Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education." *JournalNX*: 423-426.
10. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. "A HERO WHO SAW THE WAR!." 75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты. 2020.

11. Madrakximova, Mahfuza Akxmedovna, and Maftuna Islomjon qizi Yakubjonova. "CRITERIA OF MONITORING AND EVALUATION FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.6 (2019): 346-347.
12. Shukurovich, Madrakhimov Shukhratjon, et al. "OPPORTUNITIES TO DEVELOP STUDENTS' TEXT WORKING COMPETENCIES IN LECTURE LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 799-803.
13. Ugli, Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon, et al. "ORGANIZATIONAL FORMS OF COMPUTER SCIENCE EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 790-794.
14. Ugli, Muydinjonov Davlatjon Rafiqjon, et al. "USE OF REMOTE TECHNOLOGIES IN TEACHING COMPUTER SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 785-789.
15. Siddikovna, Ahmedova Zebikhon, Marasulova Zulayho Abdullayevna, and Yuldashev Abdurauf Rozmatjonovich. "Innovations and Advanced Foreign Experiences in Teaching Informatics in Higher Education in Interdisciplinary Relations." JournalNX (2021): 371-374.
16. Ruzmatjonovich, Yuldashev Abdurauf. "MODERN SOFTWARE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 795-798.
17. Turdaliyev, SM va boshqalar. "Axborot xavfsizligini biznes uchun strategik qilish." ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali 11.4 (2021): 1019-1021.
18. Muydinjonov, Davlatjon R. "Uch singulyar koeffitsientli Helmgolts tenglamasi uchun Xolmgren masalasi". Elektron tahlil va amaliy matematika jurnali 2019.1 (2019): 15-30.
19. Muydinjonov, Ziyodjon, and Davlatjon Muydinjonov. "INFORMATION, COMMUNICATION AND TECHNOLOGY (ICT) IS FOR TEACHER AND STUDENT." (2022).